

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD 03/30.12.2019 Psi.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RAJABOVA GO‘ZAL ZARIFOVNA

FOLKLOR AN‘ANALARI ASOSIDA BOLA SHAXSINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on the
Psychological Sciences**

Rajabova Go'zal Zarifovna

Folklor an'analari asosida bola shaxsini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari..... 3

Ражабова Гузал Зарифовна

Педагогико-психологические особенности развития личности ребенка на основе фольклорных традиций 25

Rajabova Go'zal Zarifovna

Pedagogical and psychological features of a child's personality development based on folklore traditions 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD 03/30.12.2019 Psi.72.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RAJABOVA GO‘ZAL ZARIFOVNA

FOLKLOR AN‘ANALARI ASOSIDA BOLA SHAXSINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/P762 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasining (www.buxdu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nazarov Akmal Mardonovich
psixologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ro'ziqulov Faxriddin Rasulovich
psixologiya fanlari nomzodi, professor

Ataboyeva Nargiz Batirovna
psixologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi PhD03/30.12.2019 Psi.72.06. raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «__» _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel: _____; faks _____ Buxoro davlat universiteti bosh binosi, 2-qavat anjuman zali).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (__ raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi 11-uy, Tel: +99865221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2024 yil «__» _____ dagi __ raqamli ryeyestr bayonnomasi).

A.M.Jabborov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi
o'rinbosari, psixologiya fanlari doktori,
professor

Sh.Sh. Rustamov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

A.A. Xuseynova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash, aqliy imkoniyatlarini kengaytirish, sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ularni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish mexanizmlari tatbiq etilmoqda. 2015-yil Janubiy Koreyada o'tkazilgan butunjahon forumida ta'limning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi «Ta'lim-2030» Incheon deklaratsiyasi¹ qabul qilindi va butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiylashuv ko'nikmalarini, ularning ijodkorligi, tasavvur darajasi, hissiy bilish imkoniyatlarini kengaytirish, o'zining va tengdoshlarining hissiy holatini anglash xususiyatlarini rivojlantirish, kattalar bilan munosabatni to'g'ri tashkil eta olish, o'zini anglash, shaxslararo muloqotda emotsional ta'sir imkoniyatlarini o'zlashtirish va kengaytirish yo'nalishidagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida maktabgacha yoshdagi bolalarni folklor an'analari orqali shaxslilik sifatlarini rivojlanish, empatiya, ijtimoiylashuv, shuningdek, kreativlik xususiyatlarini rivojlanishida adaptiv va interaktiv texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, bolalarning o'zini va o'zgalarni anglashi, xalq og'zaki ijodi, milliy qahramonlar siymosini anglash ko'nikmalarini egallashi, badiiy tasavvur va tafakkurini rivojlantirish, mashg'ulotlarda axborot texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'limda nazariya hamda amaliyot uyg'unligini ta'minlash kabi masalalarga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor berilmoqda. Bolalarni axloqiy-ma'naviy tarbiyalashni aynan ularni ijtimoiy-hissiy rivojlantirishdan boshlash zarur. Zero, muloqot ishtirokchilari suhbatdoshlarining hissiy holatini anglamasa, o'zlarining hissiyotlarini samarali boshqarishni bilmasa, hech qanday muloqot, o'zaro ta'sir ijobiy natija bermasligi mumkin. O'zining hissiyotlarini tushunish, anglash o'sib kelayotgan shaxsning rivojlanishida muhim bosqich ekanligi o'rganilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarni tashkil etishning yangi shakllarini tatbiq etish, ta'lim-tarbiyaning sifati va samaradorligini oshirish, bolalarning intellektual hamda emotsional imkoniyatlarini ijtimoiy ehtiyojlarga mos tarzda takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratildi, shuningdek, moddiy-texnika bazasi rivojlantirilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish»² alohida ta'kidlangan. Mashg'ulotlarni multimedia vositalari asosida tashkil etish, pedagogik-psixologik muloqot sharoitida ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmini yaratish ustuvor vazifa etib belgilandi.

¹ https://ru.zahn-info-portal.de/wiki/Incheon_declaration

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 - yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoniga 1-ilova, 39-maqсад. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/5841063>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni, 2018-yil 30-avgustda qabul qilingan «Maktabgacha ta‘lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3955-son, 2019-yil 5-maydagi «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ-4312-son, 2020-yil 6-noyabrdagi «Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-4884-son Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi «Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 133-son qarori hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz ta‘lim tizimida maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarda munosabatlar tizimini rivojlanish, maktabgacha ta‘lim muassasalarida multimedia texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari, katta maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlikni tarbiyalash masalalari bo‘yicha F.A.Akramova, B.M.Botirov, F.F.Ganjiyev, E.G‘.G‘oziyev, A.M.Jabborov, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, M.A.Norbosheva, A.M.Nazarov, N.A.Bahriyeva, M.M.Taydjanova, B.M.Umarov va boshqalarning tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlaridan T.V.Anoxin, A.G.Asmolov, B.G.Ananyev, Y.M.Antanyan, G.A.Berulava, A.K.Belousova, I.V.Dubrovina, L.S.Vigotskiy, G.M.Ivashenko, A.A.Kibireva, I.B.Kotova, L.V.Lidak, L.A.Petrovskaya, T.P.Skripkina, T.N.Sherbakova kabilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda «Men»likning ifodalanishi, ularning shaxs sifatida rivojlanishida folklor an‘analaridan foydalanishning muhim rolini ta‘kidlashgan.

Xorijiy olimlar tomonidan maktabgacha ta‘lim borasida qator izlanishlar amalga oshirilgan, jumladan, J.Dyui, A.Maslou, Z.Freyd, T.Parsons, J.Piaje, P.Ekman, M.Klennert, S.Xarter va boshqalarning olib borilgan ilmiy izlanishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish, o‘zini-o‘zi bilish, his-tuyg‘ularini tushunish, tasavvur darajasi, o‘z-o‘zini nazorat qilish va his-tuyg‘ularini boshqarish, munosabatlarni tartibga solish, muloqot qobiliyatlari, empatiya, boshqalarning his-tuyg‘ularini qabul qilish, ta‘lim-tarbiya muammosi, ijtimoiy-hissiy rivojlanishi to‘g‘risida sharhlar bayon qilingan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-202005236 «Oila

psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotini yaratish» nomli innovatsion loyihasi doirasida bajarilgan (2021-2022 y.y).

Tadqiqotning maqsadi folklor an'analari asosida bola shaxsini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maktabgacha yoshdagi bolalarda folklor an'analarning shaxsni o'z-o'ziga beradigan bahosini shakllanishiga ta'sirini ochib berish;

folklor an'analari orqali bolalarning xissiy sohasiga korreksion ta'sir etish va tasavvurlari darajasini rivojlanish xususiyatlarini isbotlash;

maktabgacha yoshdagi bolalarni folklor an'analari asosida shaxslilik sifatlarini rivojlantirishning tuzilmaviy-funksional tizimini takomillashtirish;

maktabgacha yoshdagi bolalarni kreativligini oshirishda folklor yo'nalishini mohiyatini ochib beruvchi psixokorreksion model ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida folklor an'analari asosida bola shaxsini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini o'rganish maqsadida Buxoro shahridagi 11-sonli MTT, 19-sonli MTT, Navoiy shahridagi 94-sonli MTT hamda Qarshi shahridagi 98-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan jami 190 nafar bolalar hamda ularning 44 nafar ota-onalari respondentlar sifatida jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini folklor an'analari asosida bola shaxsini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida suhbat, kuzatuv, o'z-o'zini baholashga qaratilgan T.D.Martsinkovskaya «Zina» metodikasi; bolaning hissiy holatini va agressiyaning mavjudligini aniqlashga qaratilgan M.A.Panfilovanning «Kaktus» chizma (grafik) metodikasi, G.Xomentauskas bolaning o'z oilasi haqidagi tasavvurlarini o'rganishga «Oila rasmi» proyektiv metodikasi, «Maktabgacha yoshdagi bolalar tasavvur darajasini aniqlash» ijtimoiy-psixologik so'rovnomasi hamda matematik-statistik metodlar (Styudentning t-mezoni, tegishli ko'rsatkichlarning aloqadorligi darajalari K.Pirsonning r-korrelyatsiya formulasi va ma'lumotlarni qayta ishlash «SPSS 22» dasturi) imkoniyatlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o'z-o'ziga bahosini shakllanishida qahramonlik ruhidagi o'yinlar kompozitsiyasi shaxs jismoniy va aqliy rivojlanish motivlarini, obrazlar va voqea-hodisalar tasvirida shaxslararo munosabatlarni ifoda etilganligi, milliy urf-odatlar, kasb-hunarga oid tasavvurlarni mujassamlashtirib bola «Men»ini kreativ rakursda namoyon bo'lishiga olib kelganligi tufayli folklor an'analarning differentsiatsiyalangan ta'sirga ega ekanligi asoslangan;

folklor an'analari orqali bolalarning hissiy sohasiga korreksion-adaptiv ta'sir etish o'z-o'zini qadrlash, hurmat qilish, o'ziga ishonchni orttirib shaxsiy xavotirlanish darajasini kamaytirganligi tafakkurdagi semantik va obrazli moslashuvchanlikni namoyon bo'lishiga sabab bo'lganligi tufayli ularning tasavvurlar darajasini rivojlanishiga olib kelishi dalillangan;

maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxslilik sifatlarini rivojlantirishda didaktik va milliy o‘yinlarning badiiy-kompozitsion, lingvopoetik, uslubiy-vazifaviy xususiyatlari insonning o‘zi haqidagi ijobiy tasavvurlari, estetik hislari va kreativligini shakllanishiga olib kelganligi tufayli folklor an‘analariga asoslangan tuzilmaviy-funksional tizimni art-terapevtik usulni kiritish orqali takomillashtirish zarurati isbotlangan;

folklor an‘analari orqali bola ijodkorligini rivojlantirish modeli musiqiy axborotlarni kreativ yondashgan holda anglash, hissiy jihatdan sezish, vaziyatlarni simulyatsiya qilish tafakkurdagi originallikni kuchaytirganligi tufayli «kognitiv-boshqaruvchanlik», «emotsional», «xulqiy-boshqaruvchanlik» komponentlarini o‘zaro integratsiyalashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari shaxsining rivojlanishi ko‘rgazmali-obrazli tafakkur darajasida fikrlash, taassurotlarni solishtirish, o‘zaro qiyoslash va uni tekshirish, emotsional ta‘sir imkoniyatlarini nazorat qilish jarayonini uzluksiz rivojlantirib borishga erishilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalarni folklor an‘analari orqali shaxsini rivojlanish ta‘lim maqsadlariga kompleks yondashuvda adaptiv texnologiyalarni shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limga muvofiqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

bolalarni folklor an‘analari orqali shaxslilik sifatlarini rivojlantirish yo‘llarini optimallashtirish orqali tasavvur, ijodkorlik samaradorligini oshirish imkoni yaratilgan;

maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridagi ta‘lim va tarbiya jarayonida bolalarni folklor an‘analari orqali shaxsini rivojlantirish trening dasturi tayyorlanib, uning samaradorligi amaliyotda o‘z aksini topgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qo‘llanilgan psixologik yondashuv va usullar, ular doirasida foydalanilgan ilmiy-nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan psixologik tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida asoslanganligi, psixologik xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan psixologik natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi, tadqiqotni amalga oshirish jarayonida olingan pedagogik-psixologik natijalarning aniq fakt va raqamlar, eksperimental ishlar yakunida olingan empirik natijalar orqali asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida olingan ilmiy psixologik natijalar va xulosalar maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining folklor an‘analari asosida bola shaxsini rivojlanish jarayoni, «Men»likni tarbiyalash, hissiy rivojlanishni ta‘minlash va ularning o‘ziga xos jihatlarini ifodalovchi xususiyatlarining psixologik mazmuni tavsiflangan ilmiy xulosalardan maktabgacha ta‘lim va rivojlanish psixologiyasi yo‘nalishlaridagi ishlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tadqiqot ishlari bo‘yicha olingan nazariy va empirik materiallar maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalar bilan tashkil etiladigan amaliy mashg‘ulotlar, malaka oshirish kurslari mazmunini boyitishga,

mazkur fan dasturlarini takomillashtirishga, maktabgacha ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Folklor an'analari asosida bola shaxsini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari yuzasidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o'z-o'ziga bahosini shakllanishida qahramonlik ruhidagi o'yinlar kompozitsiyasi shaxs jismoniy va aqliy rivojlanish motivlarini, obrazlar va voqea-hodisalar tasvirida shaxslararo munosabatlarni ifoda etilganligi, milliy urf-odatlar, kasb-hunarga oid tasavvurlarni mujassamlashtirib bola «Men»ini kreativ rakursda namoyon bo'lishiga olib kelganligi tufayli folklor an'analarning differensial ta'sirga ega ekanligi asoslangan ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-fevraldagi PM-118-son buyrug'i bilan «Muloqot psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 1-martdagi PM-118a-son ma'lumotnomasi). Natijada maktabgacha yoshdagi bolalarda folklor an'analarning shaxsning o'z-o'ziga beradigan bahosini shakllanishiga ta'siri ochib berilgan;

folklor an'analari orqali bolalarning hissiy sohasiga korreksion-adaptiv ta'sir etish o'z-o'zini qadrlash, hurmat qilish, o'ziga ishonchni orttirib shaxsiy xavotirlanish darajasini kamaytirganligi tafakkurdagi semantik va obrazli moslashuvchanlikni namoyon bo'lishiga sabab bo'lganligi tufayli ularning tasavvurlar darajasini rivojlanishiga olib kelishi dalillangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-fevraldagi PM-118-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 1-martdagi PM-118a-son ma'lumotnomasi). Natijada folklor an'analari orqali bolaning hissiy sohasiga korreksion ta'sir etish va tasavvurlari darajasini rivojlanish xususiyatlarini isbotlangan;

maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxslilik sifatlarini rivojlantirishda didaktik va milliy o'yinlarning badiiy-kompozision, lingvopoetik, uslubiy-vazifaviy xususiyatlari insonning o'zi haqidagi ijobiy tasavvurlari, estetik hislari va kreativligini shakllanishiga olib kelganligi tufayli folklor an'analarga asoslangan tuzilmaviy-funksional tizimni art-terapevtik usulni kiritish orqali takomillashtirish zarurati isbotlangan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-fevraldagi PM-118-son buyrug'i bilan «Ijtimoiy psixologiya» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 1-martdagi PM-118a-son ma'lumotnomasi). Natijada maktabgacha yoshdagi bolalarni folklor an'analari asosida shaxslilik sifatlarini rivojlantirishning tuzilmaviy-funksional tizimi takomillashtirilgan;

folklor an'analari orqali bola ijodkorligini rivojlantirish modeli musiqiy axborotlarni kreativ yondashgan holda anglash, hissiy jihatdan sezish, vaziyatlarni simulyatsiya qilish tafakkurdagi originallikni kuchaytirganligi tufayli «kognitiv-boshqaruvchanlik», «emotsional», «xulqiy-boshqaruvchanlik» komponentlarini

o‘zaro integratsiyalashtirish asosida takomillashtirilgan takliflar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 26-fevraldagi PM-118-son buyrug‘i bilan «Muloqot psixologiyasi» moduliga kiritilgan (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 1-martdagi PM-118a-son ma’lumotnomasi). Natijada maktabgacha yoshdagi bolalarni kreativligini oshirishda folklor yo‘nalishini mohiyatini ochib beruvchi psixokorreksion modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, shundan 5 tasi respublika, 7 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 132 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi va e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Folklor an‘analari asosida bola shaxsini rivojlantirishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida folklor an‘analari asosida bola shaxsi rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, xorij psixologiyasida bola shaxsini rivojlantirishning psixologik nazariyalari hamda bola shaxsini rivojlantirishning o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining nazariy tahlili amalga oshirilgan.

G‘arb mamlakatlari olimlari tomonidan bola shaxsining rivojlanishiga oid ilmiy yondashuvlarga bag‘ishlangan bir qator nazariyalar ilgari suriladi. Jumladan, E.Torndayk, B.Skinner, E.Erikson, E.Shpranger, K.Byuler, A.Maslou, J.Piaje, Dj.Kelli, A.Adler, E.Fromm, G.Olport, K.Yung, R.Zazzo tadqiqotlarini alohida ta‘kidlab o‘tish lozim.

Psixologiya fanida bola shaxsini rivojlanish mexanizmlari muammosi bo‘yicha S.A.Rubinshteyn, L.S.Vigotskiy, K.K.Platonov, A.A.Lyublinskaya, M.M.Sechenov, I.P.Pavlov, V.M.Bexterev va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida ko‘plab ma’lumotlarni uchratish mumkin.

O‘zbekistonda Sh.R.Barotov, A.M.Nazarov, Sh.T.Kubayeva, D.Ro‘ziyeva, Sh.O.Toshpo‘latova, G.N.Ibragimova, N.N.Narziyeva, O.Q.Musayev,

M.X.Umarova, N.X.Begmatova, K.I.Ismailova, X.I.Kasimova, L.R.Mo‘minova, L.T.Shanasirova, N.A.Baxriyeva va boshqalar bola shaxsidagi «Men»ligini namoyon bo‘lishi, tasavvur darajasi hamda bolalardagi ijodkorlik muammolarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan.

Dissertatsiyaning «**Folklor an‘analari asosida bola shaxsini rivojlantirish dinamikasining empirik tadqiq etilishi**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo‘llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o‘tkazish tartibi o‘z aksini topgan. Shuningdek, folklor an‘analari asosida bola shaxsini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari muammosining dolzarbligi hamda unga ta’sir etuvchi omillarini aniqlashga alohida e’tibor qaratilgan.

Tadqiqot obyekti sifatida Buxoro shahridagi 11-sonli MTT, 19-sonli MTT, Navoiy shahridagi 94-sonli MTT hamda Qarshi shahridagi 98-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan jami 190 nafar bolalar hamda ularning 44 nafar ota-onalari tadqiqotimizga jalb etildi. Jumladan, 85 nafari tajriba guruhida va 105 nafari nazorat guruhida ishtirok etdi.

Tadqiqotimizning dastlabki diagnostik bosqichida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining shaxsiy hamda vaziyatga doir xavotirlanish holatlarini namoyon bo‘lishining dastlabki gender xususiyatlarini aniqladik. Bunda tajriba-sinov natijasida olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, 5-6 yosh bolalar orasida qiz bolalarga nisbatan o‘g‘il bolalarda xavotirlanish yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval.

R.Temml, M.Dorki, V.Amenlar «Bolalar xavotirlanish darajasini aniqlash» metodikasidan olingan natijalarning farqi (Styudent t-mezoni)

Shkalalar	Guruh	n	O‘rtacha qiymat	t	p
Shaxsga doir xavotirlanish	Tajriba guruh	85	4,1	-2,47*	0,05
	Nazorat guruh	105	3,2		
Vaziyatga doir xavotirlanish	Tajriba guruh	85	3,9	-2,01*	0,05
	Nazorat guruh	105	2,8		

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyaviy sifatlariga ta’sir etuvchi mezonlardan biri xavotirning yuqori bo‘lishi hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya bilan bog‘liq muammolarning aksariyati bolaning hissiy beqarorligi, shu jumladan xavotir bilan bog‘liq. Xavotirning kelib chiqish sabablarini, uning rivojlanish mexanizmlarini, boshqa holatlarga o‘tishini bilmasdan, ko‘pincha bola bilan nima sodir bo‘layotganini, uning harakatlarning asl sabablari nimada va eng muhimi, qanday qilib sodir bo‘lishini aniqlash mumkin emas.

R.Temml, M.Dorki, V.Amenlarning «Bolalar xavotirlanish darajasini aniqlash» metodikasini tajriba va nazorat guruhida o‘tkazdik. Tadqiqotda olingan natijalarni 1-jadvalda ko‘rishimiz mumkin. «Shaxsga doir xavotirlanish» omilida tajriba va nazorat guruhidagi respondentlar orasida ishonchli farqlar kuzatildi (t=

2,47*; $p \leq 0,05$). «Vaziyatga doir xavotirlanish» omilida ham tajriba va nazorat guruhlarida ahamiyatli farqlar qayd etildi ($t = -2,01^*$; $p \leq 0,05$).

Ba'zi bolalarda ilk yoshlardan boshlab xavotirlanish kuzatiladi. Ular turli sabablarga ko'ra xavotirga tushadilar. Masalan, oiladagi munosabatlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar, tarbiyachilar bilan bo'ladigan munosabatlar, shuningdek, aslida bolaga bevosita aloqasi bo'lmagan muammolarni keltirish mumkin. Jumladan, asosan, ota-onalarning bolaga noto'g'ri talab qo'yishi, bola imkoniyatlarini inobatga olmagan holda topshiriq berishlari bolada xavotirni kuchayishiga sabab bo'ladi. Afsuski, tadqiqot respondentlarining aksariyatida yuqori xavotir darajasi namoyon bo'lganini ta'kidlash lozim. Ushbu olingan eksperimental natijalar maktabgacha yoshdagi bolalarda aynan xavotirlanish darajasini normallashtirish orqali ularni tasavvur hamda ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish dolzarb psixologik ahamiyat kasb etayotganligini tasdiqladi.

Tadqiqotning navbatdagi usuli, T.D.Martsinkovskaya «Zina» proyektiv metodikasi bolani «Men»ini baholashning statistik ma'lumotlarining umumiy sharhiga o'tamiz. «Zina» metodikasi bizga bolaning «Men»ini baholash imkonini berdi. Bolaga yetti pog'onali qog'ozga chizilgan zina ko'rsatiladi, bu yerda o'rta pog'ona maydonchaga o'xshaydi va vazifa tushuntiriladi.

Tadqiqot davomida xavotirlanishi deyarli yuqori bo'lgan bolalarga «Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi, oila a'zolari (ota-onasi yoki boshqa yaqinlari), sening fikringcha, seni zining qaysi qismiga joyashtirgan bo'lar edi?», degan savolimizga bolalarning aksariyati zinani past qismini ko'rsatdilar. «Endi menga aytchi, sen o'zingni shu zinapoyaning qaysi zinasiga qoya olasan?», degan savolimizga bolalar yaqinlari tomonidan berilgan bahoga mutanosib ravishda javob berdilar.

Mazkur 2-jadvalda bolalarda T.D.Martsinkovskayaning «Zina» proyektiv metodikasi asosida bolalarning o'zini qadrlash, o'zini hurmat qilish hamda o'ziga bo'lgan ishonch darajalari tahlil qilindi.

2-jadval.

T.D.Martsinkovskayaning «Zina» proyektiv metodikasidan olingan natijalar farqlari (Styudent t mezon)

Shkalalar	Guruh	n	O'rtacha qiymat	t	p
O'z-o'zini qadrlash darajasi	Tajriba guruh	85	3,8	-1,47	0,23
	Nazorat guruh	105	4,1		
O'z-o'zini hurmat qilish darajasi	Tajriba guruh	85	3,8	-1,01	0,19
	Nazorat guruh	105	4,0		
O'ziga bo'lgan ishonch darajasi	Tajriba guruh	85	4,1	-0,97	0,10
	Nazorat guruh	105	4,3		

Tadqiqotimizning ikkinchi qismida bolalarning o'zini-o'zi qadrlash darajasini aniqlash maqsadida T.D.Martsinkovskayaning «Zina» projektiv metodikasi tajriba va nazorat guruhida o'tkazdik. Tadqiqotda olingan natijalarni 2-jadvalda ko'rishimiz mumkin. «O'z-o'zini qadrlash darajasi» shkalasi bo'yicha tajriba guruhining o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 3,8 ballni, nazorat guruhida esa 4,1 ballni tashkil qildi. Ular o'rtasidagi statistik farqni o'rganish maqsadida Styudent t mezoni orqali tahlil qilganimizda ularning natijalari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ($t=-1,47$; $p>0,23$). Dissertatsion tadqiqotimiz doirasida yuqori natija ko'rsatgan «O'z-o'zini qadrlash darajasi» omili bolaning o'ziga past baho berishini anglatadi. Bizga ma'lumki, rivojlanish psixologiyasida ilk bolalik davridan boshlab «Men» obrazi shakllanadi, u o'zini shaxs sifatida «kashf qilish»ni boshlaydi.

«O'z-o'zini hurmat qilish darajasi shkalasi bo'yicha tadqiqotda olingan natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, tajriba guruhida to'plangan ballarning o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 3,8 ballni, nazorat guruhida esa 4,0 ballni tashkil qildi. Ushbu natijalar bo'yicha ular o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ($t=-1,01$; $p>0,19$). O'z-o'zini hurmat qilish shaxs tomonidan o'z-o'zini, o'z imkoniyatlari, xatti-harakatlarini va odamlar orasidagi o'rnini baholashi hisoblanadi. Bu psixologiyada o'zini anglashning mohiyatliroq bo'lgan va eng ko'p o'rganilgan tomonidir. Shaxs asosiga tegishli bo'lgan holda o'zini baholash xulq-atvorining muhim boshqaruvchisi bo'lib xizmat qiladi. O'zini baholash maktabgacha yosh davridan boshlanadi va uning alohida e'tibor talab qiladigan darajasi o'ziga past baho berishdir. O'ziga past baho beradigan bolalar tashvishli, o'ziga ishonmaydigan, yig'loqi va arazchi, qo'rqqoq, o'zini omadsizman deb o'ylaydigan, beqaror, yangi muhitga moslashishi qiyin bo'lgan bolalar hisoblanadi. Bolalarda o'ziga baho berishning past darajasi shakllanishiga asosan, bola tarbiyalangan oila muhiti va unga nisbatan tashkil etilgan munosabat sabab bo'ladi.

«O'ziga bo'lgan ishonch darajasi» shkalasi bo'yicha tajriba guruhida to'plangan ballarning o'rtacha qiymat ko'rsatkichi 4,1 ballni, nazorat guruhida esa 4,3 ballni tashkil qilgan bo'lsa, ular o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ($t=-0,97$; $p>0,05$). O'ziga bo'lgan ishonch darajasi yuqori bo'lishi ham salbiy hisoblanib, bunday bolalar faqat o'zini haqman deb hisoblaydi, boshqa bolalarni o'z ortidan ergashtirishga harakat qiladi, o'z kamchiliklarini hisobga olmasdan, boshqalarning xatolari bilan hisoblashadi, o'ziga nisbatan ko'proq e'tibor berishlarini xohlaydi, xohish-istaklari amalga oshmaganida qattiq xafa bo'ladi va buni bemalol oshkor etadi, minnatdorlik hisi unchalik muhim ahamiyat kasb etmaydi deb hisoblaydi va boshqalar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga past va orttirilgan baho berishi ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishga salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy.

Navbatdagi tadqiqotimiz davomidagi G.Xomentauskasning «Oila rasmi» projektiv metodikasi bo'lib, bunda biz asosan bolalarning oilaviy vaziyatlarda o'zini boshqarish, oilaviy munosabatlarda xavotir darajalarini aniqladik. Metodika orqali qo'lga kiritilgan dastlabki empirik natijalarga quyidagi ko'rsatkichlar qayd qilindi (3-jadval).

Maktabgacha yoshdagi bolalar tasavvur darajasini aniqlash so‘rovnomasi orqali olingan natijalar farqlari (Styudent t mezon)

Shkalalar	Guruh	n	O‘rtacha qiymat	t	p
Tasavvur darajasi	Tajriba guruh	85	4,2	-1,01	0,47
	Nazorat guruh	105	4,4		
Semantik moslashuvchanlik	Tajriba guruh	85	3,6	-1,35	0,58
	Nazorat guruh	105	3,7		
Obrazli moslashuvchanlik	Tajriba guruh	85	4,9	-1,07	0,23
	Nazorat guruh	105	5,0		

Hozirgi zamonda hayotning har jabhasida kechayotgan jadal rivojlanish insonlarda ma’naviy ozuqaga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshiradi. Bunda eng asosiy yordamchi, albatta, badiiy asarlardagi qahramonlarning shaxs sifatleri, milliy xarakteri bo‘lishi mumkin. Tadqiqotimiz davomida ishlab chiqilgan maxsus so‘rovnomaning omillari ham aynan maktabgacha yoshdagi bolalarni tasavvur darajasi, fikrlashi, turli xil vaziyatlarga moslashishi kabi xususiyatlarni aniqlashga mo‘ljallangan.

Tasavvur darajasi har ikkala obyektlarda ham o‘rtachadan past natijani ko‘rsatdi. Tasavvur inson psixikasining o‘ziga xos shakli bo‘lib, u boshqa psixik jarayonlardan ajralib turadi va shu bilan birga idrok, fikrlash va xotira o‘rtasida oraliq pozitsiyani egallaydi. Tasavvur, fikrlash kabi, voqelik bilvosita aks ettiriladigan bilish jarayonidir. Idrok tasvirlari, xotira tasvirlari bu yerda aks ettirishning vositachi materiallari sifatida ishlaydi. Fikrlash kabi, tasavvur ham o‘tmish tajribasini qayta ishlash orqali yangi bilimlarni yaratishga qaratilgan. L.D.Stolyarenko xayol ostida oldingi tajribada olingan sezgilar va tasavvurlar materialini qayta ishlash orqali yangi tasvirlar (namoyishlar) yaratishdan iborat psixik jarayonni tushunadi. Xuddi shu boisdan ham bolalarda folklor an‘analari orqali tasavvur darajasini rivojlantirish yaxshi samara beradi. Zero, tasavvur bilimdan ustundir.

Semantik moslashuvchanlik omilida ham o‘rtachadan past natija qayd etildi. Bolalarda ob‘ektning asosiy xususiyatini aniqlash va undan foydalanishning yangi usulini taklif qilish xususiyati ulardagi ijodkorlik sifatlar darajasini belgilab beradi. Zero, har qanday ertak yoki rivoyatni bolalar analiz va sintez qilishadi va shu asosida o‘zlariga kerakli bo‘lgan xususiyatlarni olishadi. Bundan tashqari bolalarda semantik moslashuvchanlik xususiyatini yuqori bo‘lishi, mahsuldorlik faoliyatida

shaxsning ichki resurslarini kashf etish imkoniyatlarining qay darajadiligini namoyon etadigan, kreativ va qiymat-mazmuniy sohalarning ham yuqori bo'lishiga olib keladi.

Masalaga daxldor ko'plab adabiyotlar tahlili aynan maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxsini rivojlanishida obrazli moslashuvchanlik sifati ham ma'lum bir ahamiyat kasb etadi. Sababi, o'quvchilar orasidagi fikrlash, tafakkur, nutq qoidalarini o'zlashtirilishi, fikrlashdagi kreativlikka harakat qilish va aynan shu qoidalarga qiziqishi ortadi. Turli xil ertaklardagi qahramonlarning obrazlari, ularning xatti-harakati hamda alternativ modeli bola shaxsida namoyon bo'ladi.

4-jadval.

**«Ota-onalik roliga ustanovkasi va munosabatini aniqlash»
metodikasidan olingan dastlabki natijalar (n=44)**

№	Omil	O'rtacha qiymat	Stand. og'ish
1.	Bolaga o'z fikrini gapirib olish imkoniyatini berish	9,31	2,9
2.	Bolani qiyinchiliklardan saqlash	10,27	3,1
3.	Uy bekasi rolidagina o'zini namoyon etadigan ona	10,92	2,5
4.	Bolaning irodasini (xohish-istagini) bosish	12,19	3,4
5.	Ota-onalarning bola uchun «o'zini qurbon qilishi»	9,46	3,2
6.	Bolaga ziyon yetkazib qo'yishdan qo'rqish	9,12	2,5
7.	Er-xotin nizolari	9,31	2,7
8.	Ota-onalarning qattiqqo'lligi	14,13	2,5
9.	Ota-onalarning serjahlligi	17,04	3,5
10.	Bolaning onaga bog'liqligi	8,12	4,2
11.	Bolalarning ota-onaga tobeligini rag'batlantirish	10,81	3,1
12.	Boladagi tajovuzkorlikni bosish	12,24	2,7
13.	Ota-onaning «jabrlanuvchanligi»	15,27	3,3
14.	Ota-onalar va bolalarning tengligi	12,52	4,0
15.	Bola faolligini rag'batlantirish	14,88	3,2
16.	Bola bilan bo'ladigan muloqotdan qochish	13,27	2,5
17.	Erning xotinga e'tiborsizligi	10,04	2,7
18.	Boladagi shahvoniylikni bosish	8,73	2,5
19.	Onaning hukmronligi	12,15	3,5
20.	Ota-onalarning bola «hayoti»ga aralashuvchanligi (xiraligi)	13,38	2,7
21.	Ota-onalar va bolalar o'rtasidagi do'stona munosabat	10,92	3,3
22.	Bola rivojlanishini tezlashtirish	10,27	2,7
23.	Bolani tarbiyalashda chetdan (tashqaridan, boshqalar tomonidan) ko'rsatiladigan yordamning zarurligi	8,00	2,5

Shunday qilib, asosiy empirik natijalarini tahlil qilish orqali maktabgacha yoshdagi bolalardagi tasavvur darajasi nisbatan past bo'lgan bolalar guruhini aniqlash imkonini berdi. Biz ularni asosiy tajriba guruhiga jalb qildik.

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida «Ota-onalik roliga ustanovkasi va munosabatini aniqlash» (PARI so'rovnomasi) metodikasidan foydalandik.

Mazkur usul bevosita bola va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aniqlash imkonini beradi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar shaxsini rivojlanishida ota-onalarning o'z farzandiga munosabati katta o'rin egallaydi. Shuning uchun ham bolalarni nafaqat badiiy asarlar orqali shaxsini rivojlanish, balki, ota-onalik roliga ustanovkasi va munosabatini aniqlash bilan ham tekshirib ko'rdik.

Ushbu metod natijalari tahliliga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, tadqiqotimizda 44 nafar ota-ona ishtirok etdi. Tadqiqot usullari oilaviy munosabatlar tizimining ma'lum ijtimoiy-psixologik talablaridan kelib chiqqan holda o'rganish imkonini beradi. Ushbu metodlar soha mutaxassislari tomonidan yaratilgan bo'lib, amaliyotda qo'llanilib kelayotgan mezonlar asosida tanlab olingan va tadqiqotimiz maqsadiga muvofiq tarzda foydalanilgan. Ushbu metod natijalari tahliliga ko'ra, respondentlar agarda 18 va undan yuqori ballni egallagan bo'lsa yuqori natija, 5-8 ballni qo'lga kiritgan bo'lsa, past ko'rsatkich deb hisoblanadi.

4-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahlilidan ko'rinib turibdiki, eng ko'p qayd etilgan natijalar o'rta qiymatni tashkil etadi. Respondentlardan olingan natijalarga asoslanib, eng yuqori natijani «Ota-onalarning serjahlligi (17,04)» omili tashkil qilgan bo'lsa, undan keyingi o'rinlarda «Bola faolligini rag'batlantirish (14,88)», «Ota-onalarning qattiqqo'lligi (14,13)», «Bola bilan bo'ladigan muloqotdan qochish (13,27)» va «Ota-onalarning bola «hayoti»ga aralashuvchanligi (13,38)» kabi mezonlar egalladi. Bu esa ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi munosabatlarda bir qator muammolarning mavjud ekanligidan dalolat beradi. Tadqiqot metodining eng quyi natijalarini «bolani tarbiyalashda chetdan (tashqaridan, boshqalar tomonidan) ko'rsatiladigan yordamning zarurligi» (8,00) «Boladagi shahvoniylikni bosish (8,73)», «Er-xotin nizolari (9,31)» hamda «Bolaga ziyon yetkazib qo'yishdan qo'rqish» (9,12) kabi omillar tashkil etdi. Albatta, bunday holatlar oilaviy munosabatlarda yuqoridagi ko'rsatilganidek salbiy holatlarni keltirib chiqarishi, bolalarning o'zaro kompromissga kirishi, bir-birini o'zaro tushunishi va o'zaro munosabatlarda ayrim to'siqlarni keltirib chiqaradi.

Tadqiqot davomida qo'lga kiritilgan empirik tahlillarimizga asoslanib, mazkur bobda bolalar va ularning ota-onalaridan olingan statistik ma'lumotlarga tayanib, bola shaxsini rivojlanishi uchun ta'sir qiladigan omillarni korrektsiyalash maqsadida muammoni yechishga xizmat qiladigan maxsus korreksion dasturlarni ishlab chiqishga ehtiyoj sezdik. Keyingi paragraflarda maxsus korreksion dastur to'g'risida batafsil ma'lumot beramiz.

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida bola shaxsini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'zaro bog'liqlik darajalarini tahlil qilamiz. Dastlab, maktabgacha yoshdagi bolalar tasavvur darajasini aniqlash so'rovnomasi hamda

R.Temml, M.Dorki, V.Amenlarning «Bolalar xavotirlanish darajasini aniqlash» metodikasi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik natijalarini ko‘rib chiqamiz (5-jadval).

5-jadval.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tasavvur darajasini aniqlash so‘rovnomasi hamda R.Temml, M.Dorki, V.Amenlar «Bolalar xavotirlanish darajasini aniqlash» metodikasi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik natijalari

Omillar	Tasavvur darajasi	Semantik moslashuvchanlik	Obrazli moslashuvchanlik
Shaxsga doir xavotirlanish	-0,29*	-0,32*	-0,42*
Vaziyatga doir xavotirlanish	-0,28*	0,01	-0,31*

Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki bolalarning xavotirlanish darajasi tasavvurlar darajasi bilan deyarli barcha holatlarda teskari korrelyatsiya bergan. Xususan, shaxsga doir xavotirlanishning yuqoriligi bolaning o‘z-o‘ziga beradigan bahosi, o‘zini hurmat qilish darajasini pastligi bilan bog‘liq bo‘lib, ulardagi o‘z kuchi, salohiyatiga bo‘lgan ishonchning sustlik tasavvur darajasini belgilovchi omillardan hisoblangan xayol, idrok, xotira, nutqni estetik hislar bilan uyg‘un namoyon bo‘lishini ham kamaytiradi. Natijada shaxsiy xavotirlanishi yuqori bo‘lgan bolada tasavvurlar darajasi past bo‘ladi. Bolaning «nimadir» chizish, kuylash bilan bog‘liq istaklarini «chiroyli chizish, kuylash» o‘rtasida juda katta farq bo‘lib, maktabgacha yoshdagi bolalarda tasavvurlar darajasida yosh xususiyatlari ham alohida rol o‘ynar yekan. Bu yoshdagi bolalarda o‘zlaridagi kechayotgan barcha jarayonlarni «bo‘rttirmasdan», o‘zlarini «idyeallashtirmasdan» boricha ko‘rsatib berishi tasavvurlar darajasi bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur holat shaxsga doir xavotirlanishning susayishiga olib keladi.

Bolaning tasavvurlar darajasi vaziyatga bog‘liq xavotirlanish holati bilan ham teskari korrelyatsiya bergan. Mazkur holat bolaning shaxslararo munosabatlarda, ota-ona, tengdoshlar bilan munosabatlarda, muayyan holat bilan bog‘liq holda namoyon bo‘luvchi vaziyatlarda yuzaga keladigan tashvishlanish, bezovtalanish hisidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar asosan maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida savodli rasm chiza olish ko‘nikmasi va malakasiga ega bo‘lgan «bog‘cha opalari» ya‘ni tarbiyachilari bilan rasm chizmalar, milliy qo‘shiqlarni kuylasalargina, ushbu «jarayon» ulardagi tasavvur darajalari rivojlanishiga xizmat qilar ekan. Aynan mana shu munosabatlar bilan bog‘liq tashvishlar, vaziyatli xavotirlanishlarning ortib ketishi esa tasavvurlar darajasini pasayishiga olib keladi. Bizga ma‘lumki, boladagi tarbiyaviy jarayonlar, vaziyatlar maqsadi bolalarni faollikka, mustaqillikka, ijodkorlikka va albatta tashabbuskorlikka erishtirishdir. Mazkur jarayonda, vaziyatda kattalar tomonidan tanqid, nizoli vaziyatlar, chizilgan rasmlarni, ular tomonidan «bolalarcha» kuylangan folklor qo‘shiqlarini tahqirlash bilan bog‘liq holatlar esa bolaning ijodkorligi, kreativligi pasaytiradi.

Navbatdagi mezon shaxsga doir xavotirlanish va semantik moslashuvchanlik orasidagi teskari bog‘liqlikdir. Bizga ma’lumki, bola tafakkurining originalligi u yaratayotgan obrazlar (chizilgan rasm, yaratilgan kuy-qo‘shiqlar, milliy musiqalar)ni yangiligi bilan belgilanadi. Mazkur holat semantik ma’lumotlarga moslashuvchanlik orqali yangi, ilmiy, ijodiy, tasviriy mahsulotni yaratishni o‘zida mujassamlashtiradi. Bizning ilmiy izlanishlarimiz natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, bolalardagi shaxsga doir, ya’ni o‘z-o‘zini baholash, o‘ziga munosabat, o‘ziga nisbatan hurmatning pastligi bilan bog‘liq xavotirlanish semantik ma’lumotlarga moslashuvchanlikni ham susayishiga olib kelgan. Odatda boladagi semantik moslashuvchanlik folklor yo‘nalishidagi milliy urf-odatlarni anglash, tushunish, taqlid asosida ularni o‘zlashtirish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, milliy urf-odatlar bolada ichki emotsional turg‘unlikni rivojlanishiga olib keladi. Biroq, boladagi tortinchoqlik, o‘ziga past baho berish, guruhga qo‘shila olmaslik kabi xavotirlanish darajasi esa semantik, kognitiv ma’lumotlarga moslashish, ularga yangi rakursda qarash bilan bog‘liq jarayonlarni intensivlik darajasini pasayishiga olib kelishi tabiiy holat hisoblanadi.

Keyingi mezon obrazli moslashuvchanlikning shaxsga doir xavotirlanish bilan teskari korrelyatsiya berganligidir. Bunda bolalarning muayyan topshiriqlarni bajarishdagi vizual, audial, kinestik obrazlarni idrok qilishi individual xususiyatlarni kuchaytiradi. Bolaning ijodiylik kreativlik jihatlari obrazlarni idrok etish xususiyatiga bog‘liq. Biroq, bola o‘ziga ishonmasa, o‘ziga beradigan bahosini past bo‘lsa obrazlarni originalligi, moslashuvchanligi, tafakkurning betakrorligi jihatlari ham past darajada namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, obrazlarning moslashuvchanligi vaziyatga doir xavotirlanish bilan ham teskari aloqadorlikdir. Bola atrofdagilar bilan muloqotga kirar ekan vaziyatli to‘siqlar uning o‘z imkoniyati, iqtidorini ro‘yobga chiqarish murakkablashadi. Aynan boladagi vaziyatli to‘siqlar milliy kuy-qo‘shiqlarni ijro etishdagi qiyinchiliklar obrazlarni originalligi, moslashuvchanligini amalga oshirish imkoniyatini kamaytiradi.

